

## CHIVIQLI INTENSIFIKATOR CHIVIQLARINING TUPROQQA BERADIGAN TA'SIRINI NAZARIY ASOSLASH

Jurayev Baxodir Botirovich

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti katta o‘qituvchisi

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada kartoshka kovlash mashinasining chiviqli intensifikatori asosiy parametrlari asoslangan. Shuningdek, chiviqli intensifikator elastik chiviqlarining kartoshkani kovlash jarayonida tuproqqa ta’sir etadigan yuklama qiymati aniqlangan.


**Kalit so‘zlar:** Intensifikator, chiviq, rusurstejamkor, tik yuklanish.

Kartoshka strategik oziq-ovqat mahsulotlaridan biri hisoblanadi. Dunyoda aholi sonining ko‘payib borishi oziq-ovqat mahsulotlari bilan birga, kartoshkaga bo‘lgan talabni ham oshirmoqda. Natijada kartoshkani yig‘ib olish ishlarida energiya-resurstejamkor hamda ish unumi yuqori bo‘lgan mashinalarini qo‘llash yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. “BMTning Oziq ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkilotining 2022-yil 30-maydagi hisobotiga ko‘ra, 2020-yilda kartoshka dunyoning 150 ta mamlakatida 20 mln ga dan ortiq yer maydonida ekilgani, yillik 359 mln. tonna hosil olinganini, kartoshka ishlab chiqarishni 2025- yilgacha 500 mln. tonna, 2030-yilgacha 750 mln. tonnaga yetkazish rejalashtirilayotganligini”[1] hisobga olsak, ish sifati va unumi yuqori hamda yonilg‘i sarfi kam bo‘lgan kartoshkani yig‘ib olishni ta’minlaydigan texnik vositalar va qurollarni amaliyatga joriy etish zaruriyatini taqozo etadi. Shu sababli texnik va texnologik jihatdan takomillashgan energiya va rusurstejamkor kartoshkani tuproqdan sifatli ajratib oladigan ish organli mashinalarni ishlab chiqarishni o‘zlashtirish va ulardan kartoshka yig‘ishtirishda foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamiz tuproq-iqlim sharoiti uchun energiya-resurstejamkor kartoshka kovlagich mashinasini ishlab chiqishning texnik va texnologik asoslarini yaratish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Shunga muvofiq biz tomonimizdan kartoshka kovlagichning elaklar sonini bittadan oshirmsandan metallhajmdorlikni kamaytirish hisobiga tuproq elaklanish darajasini agrotexnik talablar bo‘yicha elaklash darajasini

ta'minlash maqsadida uning elagi ustiga chiviqli intensifikatorlar o'rnatilgan kartoshka kovlagich konstruksiyasi taklif etildi[2].

Chiviqli intensifikatorning asosiy parametrlari quyidagilardan iborat (1-rasm).



### 1-rasm. Kartoshka kovlash mashinasining chiviqli intensifikatorini konstruktiv sxemasi[3]

1- lemex; 2 - elak; 3 - chiviqli intensifikator

$D_t$  – chiviqli intensifikator tishli yulduzchasining diametri, m;

$D_s$  – chiviqli intensifikator tishli yulduzchasi perimetri bo'yicha to'qib chiqilgan aylana diametri, m;

$h$  – chiviqli intensifikator yulduzchasi tishining balandligi, m;

$H_k$  – elevator ustidan elastik chiviqgacha bo'lgan masofa, m;


$Z_{ts}$  – tishlar soni,

$L_{su}$  – chiviq uzunligi, m.

Chiviqli intensifikatorning chivig'iga beriladigan tik yuklanishni tuproqni talab darajasida uvalashini ta'minlashi shartidan aniqlaymiz. Buning uchun chiviqli intensifikator ma'lum bir chuqurlikka botib ishlashi lozim. Ushbu ta'kidlanganlarni hisobga olgan holda chiviqli intensifikatorga beriladigan tik yuklanishni 2-rasmda keltirilgan foydalanib aniqlaymiz. Unga binoan chiviqli intensifikatorga beriladigan umumiyl tik yuklanish  $Q_{yu}$  ni quyidagicha ifodalab olamiz:

$$Q_{yu} = 2(Q_y + Q_{pa}), \quad (1)$$

bu yerda  $Q_y$ ,  $Q_{pa}$  – mos ravishda yuqorigi va pastki chiviqlarga beriladigan tik yuklanish, N.




**2-rasm. Chiviqli intensifikatorning chivig‘iga beriladigan tik yuklanishni aniqlashga doir sxema**

Ushbu chizma (2-rasm) va ilgari o‘tkazilgan nazariy tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, elevator ustidagi tuproq massasi bilan bir vaqtda to‘rtta chiviq ta’sirlashishi aniqlangan. Shuning uchun elevator ustidagi tuproqqa chiviqli intensifikatorning ikkita yuqorida turadigan chiviqlari o‘zining diametri bo‘yicha yoki  $h_{yu}$  chuqurlikkacha botadi deb va unga beriladigan tik yuklanishni, ya’ni  $Q_y$  deb qabul qilsak, pastda turgan ikkita chiviqlarni esa  $h_{pa}$  chuqurlikka botadi va unga beriladigan yuklanishni  $Q_{pa}$  deb tadqiq etamiz.  $Q_y$  ni aniqlash uchun yuqorida joylashgan chiviqning tuproq bilan o‘zaro ta’sirlashishda bo‘lgan qismidan elementar yuza  $dS = L_{st} \cdot 1/2 \cdot d_{ch} \cdot d\alpha$  (bunda  $L_{st}$  – chiviqning elevator ustida joylashgan tuproq palaxsasiga botib turgan qismining uzunligi, m;  $d\alpha$  – elementar burchak, radian)ni ajratamiz (4-rasm).

Ajratilgan elementar yuzaga quyidagi elementar normal kuch ta’sir etadi:

$$dN = \sigma dS = \sigma L_{st} \frac{d_{ch}}{2} d\alpha, \quad (2)$$

bunda  $\sigma$  – tuproqning chiviqli intensifikator chivig‘i tomonidan ezilishga solishtirma qarshiligi, Pa.



**3-rasm.  $Q_{yu}$  ni aniqlashga doir sxema**

Chiviqli intensifikatorning chivig‘iga ta’sir etayotgan elementar normal kuchlar tik tashkil etuvchilarining yig‘indi  $Q_{yu}$  ga teng bo‘ladi ya’ni:

$$Q_{yu} = \sum dN_z = \int_{-\left(\frac{\pi}{4} + \frac{\varphi_1}{2}\right)}^{\left(\frac{\pi}{4} + \frac{\varphi_1}{2}\right)} dN \cos \alpha = \int \sigma L_{st} \frac{d_{ch}}{2} \cos \alpha d\alpha, \quad (3)$$

Bu yerda  $dN_z - dN$  elementar normal kuchning tik tashkil etuvchisi, N.

(3) ifodadagi  $\sigma$  ni tuproqning qaralayotgan nuqtadagi deformatsiyalanish kattaligi va uning hajmiy ezilish koeffisiyenti orqali ifodalaymiz:

$$\sigma = q_0(1+k_v V_u^2) \left[ h_{yu} - \frac{d_{ch}}{2}(1-\cos \alpha) \right], \quad (4)$$

bunda  $q_0$  – tuproqning hajmiy ezilish koeffisiyenti, N/m<sup>3</sup>

(4) ni hisobga olib, (3) ni quyidagi ko‘rinishga keltiramiz:

$$\begin{aligned} Q_{yu} &= \int_{-\left(\frac{\pi}{4} + \frac{\varphi_1}{2}\right)}^{\left(\frac{\pi}{4} + \frac{\varphi_1}{2}\right)} q_0(1+k_v V_u^2) L_{st} \frac{d_{ch}}{2} \left[ h_{yu} - \frac{d_{ch}}{2}(1-\cos \alpha) \right] \cos \alpha d\alpha = \\ &= q_0(1+k_v V_u^2) L_{st} \frac{d_{ch}}{2} \int_{-\left(\frac{\pi}{4} + \frac{\varphi_1}{2}\right)}^{\left(\frac{\pi}{4} + \frac{\varphi_1}{2}\right)} \left[ \left( h_{yu} - \frac{d_{ch}}{2} \right) \cos \alpha d\alpha + \frac{d_{ch}}{2} \cos^2 \alpha d\alpha \right]. \end{aligned} \quad (5)$$

Bu ifodani integral ko‘rinishi:

$$\begin{aligned} Q_{yu} &= q_0(1+k_v V_u^2) L_{st} \frac{d_{ch}}{2} \times \\ &\left[ 2 \left( h_{yu} - \frac{d_{ch}}{2} \right) \sin \left( \frac{\pi}{4} + \varphi_1 \right) + \frac{d_{ch}}{2} \left( \frac{\pi}{4} + \frac{\varphi_1}{2} + \frac{1}{2} \cos \varphi_1 \right) \right]. \end{aligned} \quad (6)$$

Bu olingan natijani barcha chiviqlarga tadqiq etib quyidagi natijaga ega bo‘lamiz:

$$\begin{aligned} Q_{pa} &= q_0(1+k_v V_u^2) L_{st} \frac{d_{ch}}{2} \times \\ &\times \left[ 2 \left( h_{pa} - \frac{d_{ch}}{2} \right) \sin \left( \frac{\pi}{4} + \varphi_1 \right) + \frac{d_{ch}}{2} \left( \frac{\pi}{4} + \frac{\varphi_1}{2} + \frac{1}{2} \cos \varphi_1 \right) \right]. \end{aligned} \quad (7)$$

(6) va (7) ifodalarni hisobga olgan (1) ifoda quyidagicha yoziladi:

$$\begin{aligned} Q_{yu} = & 4q_0(1+k_v V_u^2) \left( b_{pe} + 2(H_{gr} - H_k)/\tg\phi \right) \frac{d_{ch}}{2} \times \\ & \times \left[ \left( h_{yu} + \sqrt{H_{gr}^2 - L_{or}^2 - H_k^2} - d_{ch} \right) \sin \left( \frac{\pi}{4} + \varphi_1 \right) + \frac{d_{ch}}{2} \left( \frac{\pi}{4} + \frac{\varphi_1}{2} + \frac{1}{2} \cos \varphi_1 \right) \right] \end{aligned} \quad (8)$$

Bu ifodaga  $q_0 = 1,1 \cdot 10^6 \text{ N/m}^3$ ,  $K_v = 0,01 \text{ S}^2/\text{m}^2$ ,  $V_u = 1,5 \text{ m/s}$ ,  $L_{st} = 1 \text{ m}$ ,  $d_{ch} = 0,0075 \text{ m}$ ,  $b_{pe} = 15 \text{ cm}$ ,  $H_{gr} = 15 \text{ cm}$ ,  $H_k = 10 \text{ cm}$ ,  $h_{yu} = 0,0075 \text{ m}$ ,  $L_{or} = 0,025 \text{ m}$ ,  $\varphi = 40^\circ$ ,  $\varphi_1 = 30^\circ$  qiymatlarni qo'yib, chiviqli intensifikator tuproq kesaklarini talab darajasida maydalashi uchun uning har bir metr qamrash kengligiga 1700 N/m tik yuklanish berilishi lozimligini aniqlaymiz.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. <https://www.fao.org> – BMTning Oziq ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti rasmiy sayti.
2. D.R. Norchayev, R. Norchayev, J.R. Norchayev, B.B. Jurayev va boshqalar. Kartoshka yig'ishtirish mashinasining elaklash elevatori. Foydali modelga patent, FAP 01988, 27.06.2022 y.
3. Jurayev B.B. (2023). Kartoshka kovlash mashinasining chiviqli intensifikatori asosiy parametrlarining nazariy asoslari. Educational Research in Universal Sciences, 2(14), 539–542. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4483>